

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”
Tarix fakulteti dekani
_____ t.f.n. V.Ishquvvatov
2014 yil «_____» _____

5141500 – Tarix fakulteti “Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi”
bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Qudratov O‘ktam Ravshan o‘g‘lining

**“Buzg‘unchi g‘oyalarning salbiy oqibatlariga qarshi kurash
usullari”**

mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: “Milliy g‘oya va
ma‘naviyat asoslari” kafedrasida katta
o‘qituvchisi _____ t.f.d. I.Xoliqov

“Himoyaga tavsiya etilsin”
“Milliy g‘oya va ma‘naviyat asoslari”
kafedrasida mudiri _____ f.f.n.M.A. Sobirova
2014 yil “_____” _____

Toshkent – 2014

Mundarija

KIRISH

I-BOB. YoSHLAR MA'NAVIYATIGA YOT TAHDIDLARNI TAHLIL ETISHNING DOLZARB JIHATLARI.

1. Globallashuv va uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'siri
2. Buzg'unchi g'oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri

II-BOB. BUZG'UNCHI G'OYALARGA QARSHI KURASH VOSITA VA USULLARI.

1. Yoshlar ma'naviyatiga yot tahdidlarga qarshi g'oyaviy tarbiya usul va vositalari
2. Yot tahdidlarga qarshi kurashda oila va mahallaning ta'siri

III-BOB. “ BUZG'UNCHI G'OYALARNING SALBIY OQIBATLARIGA QARSHI KURASH USULLARI ” MAVZUSINI O'QITISHDA YANGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

1. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat g'oyaini singdirish yuzasidan uslubiy maslahatlar.
2. Mavzu yuzasidan dars ishlanmasi

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Biz yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifani o'z bo'ynimizga olganmiz. Bu ishda har qaysi ota-ona, ustoz-murabbiy, mahalla oqsoqoli va faollarining yakdil va uyg'un faoliyati muhimdir. Zotan, Prezident yozadi: "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zbo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizda, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin"¹. Zero, bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo'shliq bo'lmaydi. Qayerdadir bo'shliq paydo bo'ldimi, hech shubhasiz uni albatta kimdir to'ldirishga harakat qiladi². El-yurtimiz o'zining ko'p asrlik tarixi davomida ko'rgan jabru-jafolar, tilimiz, dinimiz va ma'naviyatimiz chekkan ozorlardan tegishli saboq chiqarishga chaqiradi: "O'tgan davr mobaynida eski tuzumdan og'ir meros bo'lib qolgan ana shunday illatlarga, el-yurtimizga nisbatan kamsitish va milliy manfaatlarimizni mensimaslik holatlariga barham berish, ko'hna qadriyatlarimiz, dinu diyonatimizni tiklash, hayotimizda tarixiy adolatni qaror toptirish, yangi jamiyat qurish yo'lida xalqimizning ma'naviy yuksalishni o'z oldimizga qo'ygan olijanob maqsadlarga yetishda hal qiluvchi mezon deb qarash va shu asosda uni olib borish biz uchun doimo ustivor vazifa bo'lib kelgani va bugun ham e'tiborimiz markazida turganini ta'kidlash lozim"¹.

Ma'naviyatga qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod keljagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xabarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008, 4-bet.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008, 12-bet.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008, 6-7-bet.

mumkin. Chunki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar qaysi bir xalq yoki mamlakatni o'ziga tobe qilib, bo'ysindirmoqchi, uning boyliklarini egallamoqchi bo'lsa, avvalambor, uni qurolsizlantirishga, ya'ni eng buyuk boyligi bo'lishi milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo qilishga urinadi². Shuning uchun – bu Sharq yoki G'arb mamlakatlari bo'ladimi, olis Afrika yoki Osiyo qit'asi bo'ladimi – jahonning qaysi burchagida bo'lmasin, ma'naviyatga qarshi qandaydir tahdid paydo bo'ladigan bo'lsa, o'zining bugungi kuni va ertangi istiqbolini o'ylab yashaydigan har bir ongli inson, har bir xalq tashvishga tushishi tabiiy, albatta. Muallif ma'naviy tahdidlar haqida gap ketganida mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xuruj kabi inson ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini qo'ygan, tili, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi insonning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashga qarshi qaratilgan xurujlar mohiyatiga to'xtaladi³.

Turli mazmundagi tahdidlarga qarshi kurash haqida gap borganida Prezident asarlarida ma'naviy tarbiya asosini tashkil etuvchi muhim omil va mezonlar, shaxsning yosh xususiyatlarini hisobga olib, bosqichma-bosqich rivojlantirib borish usul va vositalariga alohida e'tibor berish lozim.

Insoniyat yangi ming yillikka katta umid va ishonch bilan qadam qo'yib, kelajakka dadil ko'z tashlab turgan bir paytda ezgulik va taraqqiyot dushmanlari o'zlarining g'arazli niyatlari yo'lida o'ziga xos jipslashishning murakkab yo'llarini izlamoqdalar. Bugun terrorizm bir xalq, bir mamlakat, bir hudud muammosi bo'lmay qoldi. Balki u umumjahon razolatiga aylandi.

Jahon miqyosida terrorizmning ashaddiylashib borayotgani faqat bugun ma'lum bo'lgan haqiqat emas. Bu qora kuch tarix so'qmoqlarida paydo bo'libdiki, doimo ravnaqu rivojga, taraqqiyotga qarshi kurashib kelgan. U ba'zan din niqobida, ba'zan siyosat libosida, ba'zan esa to'g'ridan-to'g'ri, yuzsizlarcha ochiq razillik ko'rinishlarida amal qilib kelgan. Shunday ekan buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashish, unga qarshi g'oyaviy salohiyatni tarbiyalash ta'lim-tizimi oldiga qator vazifalarni qo'ymoqda.

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008, 11-bet.

³ O'sha asar, 14-bet.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1993 yilning 28 sentyabrida BMTning 48-sessiyasida qilgan ma'ruzasidayoq dunyo hamjamiyati diqqat-e'tiborini xalqaro terrorizm, ayniqsa, Afg'oniston muammosi, narkobiznes, din niqobidagi siyosiy nayranglar, ko'r-ko'rona aqidaparastlik va bundan siyosiy maqsadlarda foydalanishning muqarrar salbiy oqibatlari Afg'oniston mojarosini mintaq va dunyo tinchligiga salbiy ta'siri va bu zaminda barqarorlikni ta'minlash uchun jahon hamjamiyati shuningdek, nufuzli mamlakatlarning faolligini oshirish lozimligi to'g'risida gapirgan edilar. Shuningdek Yurtboshimiz "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida...", "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida xalqimiz ma'naviyatiga, vatanimiz mustaqilligiga tahdid soluvchi qator muammolarni tahlil qiladi. Shuningdek globallashuv jarayonlari, ma'naviy-mafkuraviy taxdidlar masalasi bilan Grini L.E. Baxodir Zokir., Idivov U., Otamurotov S¹., Ergashev I²., Toshxo'jaev Lafasov M³, Jumaniyozov X.S. va boshqalar keng shug'ullanishgan. .

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Globallashuv sharoitida turli mazmundagi vayronkorlik g'oyalari, ularning amalga oshishi usullari, ularning xalqimiz mentalitetiga zidligi, unga qarshi kurash vositalari, ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi vazifalar ilmiy ish ob'ektini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Globallashuv sharoitida turli mazmundagi vayronkorlik g'oyalari, ularning amalga oshishi usullari, ularning xalqimiz mentalitetiga zidligi, unga qarshi kurash vositalari, ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi vazifalar bilan bog'liq ko'rsatmalar, dasturlar, tegishli hujjatlar ilmiy ish predmetini tashkil etadi.

BMI ning maqsadi: Globallashuv sharoitida Buzg'unchi g'oyalarning salbiy oqibatlariga qarshi kurash usullarini tahlil etish, yoshlarda unga qarshi g'oyaviy salohiyatni shakllantirish iborat

BMI ning vazifalari:

¹ Otamurotov S. Globallashuv va millat. T-2009

² Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi. -T.: Akademiya, 2005.

³ Lafasov M. Ekstremizm, terrorizm tarixi va mohiyati. – T.,: Iqtisod-Moliya, 2008.

- Globallashuv va uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'sirini yoritish;
- Buzg'unchi g'oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri tushuntirish;
- Yoshlar ma'naviyatiga yot ichki tahdidlarva ularga qarshi kurashish chora-tadbirlari;
- Yoshlar ma'naviyatiga yot tahdidlarga qarshi g'oyaviy tarbiya vositalarini ko'rsatish;
- Yot tahdidlarga qarshi kurashda oila va mahallaning ta'sirini yoritish;
- Yot tahdidlarga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining rolini ko'rsatishdan iborat.
- Terrorizm – jahonda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyotning dushmani ekanligini ochib berish;
- islom ekstremizmi va aqidaparastligining jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri ko'rsatishdan iborat.

BMI ning ilmiu yangiligi.

- Globallashuv va uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'siri yoritildi;
- Buzg'unchi g'oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri tahlil etildi;
- Yoshlar ma'naviyatiga yot ichki tahdidlarva ularga qarshi kurashish chora-tadbirlari belgilab berildi;
- Yoshlar ma'naviyatiga yot tahdidlarga qarshi g'oyaviy tarbiya vositalari oldidagi vazifalar ko'rsatib o'tildi;
- Yot tahdidlarga qarshi kurashda oila va mahallaning ta'siri yoritildi;
- Yot tahdidlarga qarshi kurashda ommaviy axborot vositalarining roli belgilab berildi;
- Buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashda ta'lim-tarbiya tizimi oldidagi vazifalar belgilab berildi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-metodologik asoslari. Prezidentimizning ma'naviyat, meros, yoshlar tarbiyasida Navoiy merosining ahamiyati, bu borada ta'lim tizimi oldidagi vazifalarga doir fikrlari, shuningdek yetakchi Navoiyshunos

olimlarimizning mazkur masalaga doir qarashlari tadqiqot ishining nazariy-metodologik asosini tashkil etadi.

Mavzuning ilmiy va nazariy ahamiyati. Tadqiqot ishidagi amaliy taklif va xulosalardan tarix, milliy g'oya sohasi bilan shug'ullanuvchilar hamda faylasuflar foydalanishlari mumkin. Shuningdek tegishli taklif-xulosalardan milliy g'oya, ma'naviyat asoslari dasrlarini olib borishda tegishli mavzularda foydalanish mumkin.

BMI ning tuzilishi. Mavzu kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. YoSHLAR MA'NAVIYATIGA YoT TAHDIDLARNI TAHLIL ETISHNING DOLZARB JIHATLARI.

1.1. Globallashuv va uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'siri.

Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar faslida dunyoni tez sur'atlar bilan o'zgartirayotgan "globallashuv" hodisasining ko'lami va ta'siri bugungi

kunda kengayib, kuchayib borayotgani ta'kidlanadi. "Shu ma'noda, — deb ta'kidlaydi muallif, — globallashuv — bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir"¹.

Har qanday ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Globallashuv davrida davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulay imkoniyatlar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, tsivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekologik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi kabi ijobiy jihatlari ham yuz beradi. Globallashuv jarayonining ayni paytda mafkuraviy ta'sir o'tkazish vositasi sifatida turli siyosiy kuchlar manfaatlariga xizmat qilayotganini, ushbu jarayon orqali milliy qadriyatlarimizga yot g'oya va qarashlar yopirilib kirib kelayotganini, bularning barchasi qanday salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, bugungi kunda inson ma'naviyatiga yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyulgan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin. Darhaqiqat, harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiqni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab olish qiyin. SHu ma'noda, tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash, loqaydlik va beparvolikka barham berish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston respublikasi Prezidenti ma'naviyatga qarshi turli xurujlar haqida gapirar ekan, ta'kidlab o'tadiki: "Bu haqda gapirganda, faqat bitta millat yoki xalq haqida fikr yuritish masalani o'ta tor tushunish bo'lur edi. Ya'ni, bu o'rinda so'z faqat bizning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan tajovuzlar haqida, azaliy fazilatlarimiz, milliy qadriyatlarimizni ana shunday hujumlardan asrash

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T.2008

xususidagina borayotgani yo'q. Muhim ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ushbu muammoni keng miqyosda, dunyoning barcha mamlakatlari va xalqlari hayotiga daxldor masala sifatida o'rganish, tahlil qilish va baholash maqsadga muvofiqdir"¹.

Insonning qalbi va ongiga jo bo'lgan milliy ma'naviy-axloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov doimo ta'kidlab kelganidek: "...Farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz asosida, o'z fikru tafakkuri va zamonaviy bilimga ega bo'lgan vatanparvar etib voyaga yetkazish – barchamizning otalik va onalik burchimizdir." Vatanimiz kelajagi bo'lgan yoshlarga hozirgi zamon talablari darajasida bilim va tarbiya berish, ularni yuksak ma'naviyatli, ongi harqanday salbiy ta'sirlarga nisbatan bardoshli qilib voyaga yetkazish – bugungi kun ta'lim muassasalarining asosiy vazifasidir, chunki faqat ana shunday insonlargina kelajakda odil jamiyat poydevorini yarata oladilar.

Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog'i lozim. Dushmanlik, g'ayr ko'zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug' haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o'zgani tushunish uchun, o'zgaga mehr ko'zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o'zligini anglab yetmog'i kerak. O'zligini anglamagan zot hech qachon o'zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi. Asli milliy ma'naviyatimizga bugungi ayricha e'tibor ham ushbu o'zligimizni anglab yetishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlarini nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg'unlikda olib qaramog'imiz talab etiladi. Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa,

¹ Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: «O'zbekiston», 2000. 178-b

yoxud loaqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa, yoki o'zga shaxs erkini bo'g'sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo milliy ma'naviyatimizni qadrlashimiz, uni rivojlantirishga urinishimiz, kimlardir talqin qilmoqchi bo'layotganidek, o'zga xalqlar madaniyatini mensimaslik yoki milliy xudbinlikka berilishni anglatmaydi, balki uzoq yillik qaramlik asoratidan qutulib o'zligimizga qaytish, o'zligimizni anglab yetishga urinishni bildiradi. "Chunki har qaysi millat yoki xalqning ma'naviyati uning bugungi hayoti va taqdirini, o'sib kelayotgan farzandlarining kelajagini belgilashda shak-shubhasiz hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi".

"Ommaviy madaniyat" hodisasi asosida birnecha omillarning chatishuvi yotadi. Ulardan birinchisi - imonsizlik, o'z insoniy burchi va mas'uliyatini tan olishni istamaslik, befarqlik va loqaydlik. Ikkinchisi - sanab o'tilgan qusurlarni oqlashga xizmat qiluvchi "dunyoni manfaat boshqaradi" (demak, bu dunyoda har kim o'z foydasi uchun qo'lidan kelgan harakatini qilsa, bo'laveradi, degan) dahriyona (aniqrog'i, xudbinona) tezis ("qoida") asosida yashash. Bu ikki omil azaldan bo'lgan. Uchinchisi – oldingilaridan kelib chiqadigan axloqiy relyativizm, ya'ni dunyoda azaliy va abadiy qat'iy axloqiy meyorlar mavjud emas, ko'pchilik o'zini qanday tutayotgan bo'lsa, biz ham shunga qarab ketaveramiz, degan o'ysizlik, fikriy dangasalik tamoyili. Va nihoyat to'rtinchisi - bugungi axborot vositalarining cheksiz imkoniyatlari sharoitida yuqoridagi Prezident ta'rifiga muvofiq, befarqlik va o'ysizlik botqog'iga botgan kimsalarning dunyoni boshqarishga intilayotgan kichik bir guruh qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib, o'zlarining eng tuban hayvoniy xohish va istaklarini ochiqdan-ochiq namoyon qilishni "umuminsoniy axloqiy meyorlar" darajasiga ko'tarishga urinishlaridir. Bunday holatlar Yevropa mintaqasi tarixida ilgari ham bo'lgan, ammo hech qachon bu daraja jahon miqyosida keng ko'lam kasb etmagan va bu darajada kuchli targ'ibot imkoniyatlariga ega bo'lmagan edi. "Shuni unutmazlik kerakki, bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo'lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan

kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin"¹

Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.²

Axloq ilmidagi relyativizm tamoyili inson axloqini mo'tadil tutishda imonning ahamiyatini yetarli hisobga olmaslik XX asr o'rtalaridan boshlab mohiyatan g'ayriinsoniy "axloqiy" meyorlarning Yevropa muhitida urchib ketishiga olib keldi. Yevropa muhitidagi bunday xatarli tamoyillar turli yo'llar bilan dunyoning boshqa mintaqalariga ham kirib kelmoqda³.

"Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda"⁴ va bunday xatarli holatdan faqat o'z xalqini emas, balki butun jahon afkor ommasini ogohlantirish lozim.

"Ma'naviy tahdid deganda,- o'rinli izoh berib o'tadi Prezident, - avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim, deb o'ylayman"⁵

Prezidentimiz topib aytganidek, "kimdir Rahmon izmida yursa, kimdir shayton izmida yuradi," harkimning gunohi ham , savobi ham o'ziga. Ammo bostirib kelayotgan xavfni ko'rib turib, ko'rmaslikka olish, hoziri-yu huzuri, o'zimning ishim bitsa bo'ldi-da, o'zga bilan nima ishim bor, degan kayfiyat bizga

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. 79-b

² Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. 9-b

³ Hezb ut-tahrir" singari ekstremistik guruhlar "demokratiya" tushunchasini ayni shunday buzuqchilik sifatida talqin qilib, o'z g'arazli niyatlarini shu yo'l bilan tarjibasiz yoshlarga yuqtirishga urinmoqdalar

⁴ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. 81-b

⁵ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. 10-b

to'g'ri kelmaydi. Qolaversa, gap bizdan keyin shu yurtning chirog'ini yoqib o'tiradigan bolajonlarimiz taqdiri ustida ketayapti.

Vaziyatning murakkabligi shundaki, bugungi kunda yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash va ziddiyatlar faqat saltanatlar, xalqlar va shaxslar o'rtasida emas, balki har birimizning qalbimizda, ongimizda kechmoqda¹. Ya'ni bu muammolar faqat yosh avlodgagina taalluqli emas. Dushman ochiq-oydin o'zini ko'rsatmaydi: siz maxsus kabel orqali berilib kino ko'rib o'tiribsiz, yoki internet orqali muayyan saytlardagi ma'lumotlar bilan tanishayapsiz, ko'chada turli reklamalar diqqatingizni tortayapti, ehtiyot bo'ling, sizni kerakli yo'nalishda "tarbiya" qilishayapti, o'z qarashlarini turli vositalar bilan ongingizga singdirishayapti. SHunday, "ular ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar pardasi ostida ish ko'radi." Biz esa sal g'aflatga berilsak, ongimizdagi o'zgarishlarni o'zimiz ham payqamay qolamiz. Go'yoki hech kim bizga tajovuz ham qilgani yo'q, majbur ham qilgani yo'q, biz o'z ixtiyorimiz bilan "mustaqil" ravishda shu "xulosa"ga keldik. Bu yerda ta'sir o'tkazishning shunday makkorona usullari qo'llanmoqda-ki, uncha-muncha odam g'aflatda qolishi hech gap emas. Aslida imonli, e'tiborli inson bunday makru hiylalarni juda oson bilib olsa bo'ladi – ular barchasi insonlar ongining eng tubiga joylashgan biologik (hayvoniy) instinktlarni qo'zg'ashga qaratilgan, bunday filmlarda eng ezgu niyatlar ham qo'lda avtomat bilan amalga oshiriladi, eng ijobiy qahramonlar ham shahvatga beriladi, oddiy hazillar ham o'zini hurmat qilgan inson uchun haqoratli holatlar shaklida yoki hayosiz iboralarda ifodalanadi.

"Lo'nda qilib aytadigan bo'lsak, - xulosa qiladi Prezident, - bunday mafkuraviy xurujlar milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishini, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlashini, o'ylaymanki, yurtimizda yashaydigan sog'lom fikrli har bir odam yaxshi tushunadi."

Insonga faqat atrof-voqelik haqida, odobu axloq qoidalari haqida bilim berishning o'zi uning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi uchun yetarli bo'lmaydi. Unda iroda qudrati, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, ko'nglida atrof-tabi'atga,

¹ Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 2008. S. 40-41.

mehnatga, kasbga, ilmga, o'zga insonlarga mehr uyg'otish, dilida ulug' maqsadlar tug'ilishiga erishish lozim. Masalan, tan olib aytish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg'usi haqida kitoblarda yozilganlarni o'qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan, yoki Adolatga xiyonat qilmaydigan bo'lib qoladi, deb tasavvur qilish o'ta soddalik bo'lur edi. Har bir inson Vatan, Millat, Adolat timsol-tushunchalarining o'z ruhidagi poydor ma'naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o'zgalar ibratida sinashi, bu yo'lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko'nglida mehr uyg'onishi zarur. Bunga turli yo'llar, turli vositalar bilan, birinchi navbatda yosh avlod tarbiyasiga samimiy (chin ko'ngildan) va izchil yondoshuv, tinimsiz izlanishlar bilan erishiladi.

“Bizning ulug' ajdodlarimiz, - deb yozadi Prezident, - o'z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy til bilan aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o'rinli deb bilaman.”

Takror aytishga to'g'ri keladi – ota-onalar, ustoz-murabbiylar bu masalada hushyorlikni yo'qotmasligimiz, yoshlar tarbiyasida aslo beparvo bo'lmasligimiz zarur.”Prezidentning hushyorlikni yo'qotmaslik, beparvo bo'lmaslik xususidagi uqdirishlarini to'g'ri tushunadigan bo'lsak, bu degani yosh avlodga to'g'ri ta'lim berish bilan birga, har bir aytgan so'zimizga avvalo o'zimiz rioya qilishimiz kerak bo'ladi.

“O'z-o'zidan ravshanki, bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon atrofimizda mavjud bo'lgan, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etmoqda.”

Mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlikni saqlab qolish va rivojlantirish yo'li bilangina qo'lga kiritilgan istiqloolni himoya qilamiz. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan tarix taqozosi bilan aloqalar kuchli rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli, izzat-ikromli munosabat, o'zaro manfaatli aloqalar esa mustaqil-likni mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina, Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda,

mintaqamiz hech qachon tsivilizatsiyalar to'qnashmaydigan, balki ular bir-biriga ta'sir etib, bir-birini boyitish-ning ibratli namunasini beradigan makonga aylanadi.

1.2. Buzg'unchi g'oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri.

2001 yil 11 sentyabrida mazkur mash'um voqealar amalga oshirilgandan so'ng, ommaviy axborot vositalari orqali, oddiy kishilarning suhbatlarida terrorizm haqida ko'p gapirila boshlandi.

Terrorizm so'zi, xalqaro terrorizm tushunchasi kecha yoki undan avval paydo bo'lmagan bo'lsa ham, uning tahdidi Ayniqsa, Yevropa uchun endi-endi tushunila boshlandi. Bu borada, siyosatchilar, siyosatshunos olimlar, iqtisodchilar ham so'z yurita boshladilar. Demak, biz barcha uchun katta tahdid solayotgan terrorizm, insoniyatning dushmani haqida, uning yovuz niyatlari va kerak bo'lsa basharasini yaqindan bilishimiz lozim.

Bizning tushunchamizda terrorizm XVIII asrda siyosiy sahnaga chiqqan bo'lsa, islom dunyosida dastlab VII asrning 2-yarmida, diniy, mafkuraviy jihatdan 3 ta asosiy yo'nalish – xorijiylik, sunniylik, shialik paydo bo'lishidan boshlandi, desak xato bo'lmaydi¹. Chunki, Islom dunyosida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan oqimlarning paydo bo'lishi, keyinchalik turli xil g'oya va mafkuralarning vujudga kelishiga olib keldi. Shu jumladan, terrorizm ildizlari ham qadim davrga borib taqaladi. Keyinchalik XVII-XIX asrda ahmadiya oqimlari vujudga kelgan. Hozirda biz bilgan islom Bilan bog'liq barcha oqimlar va fiqqlar dinda amal qilayotgan, rasman joriy mazhablarning, jumladan, sunniylikning ham asosiy g'oyalariga zid qarashlarni olg'a surmoqdalar.

Islom ekstremizm iva aqidaparastligining jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri haqida so'z yuritar ekanmiz, nafaqat uning islom dini ichidagi sabablariga balki, uni keltirib chiqaradigan, rag'batlantiradigan jihatlariga ham murojaat qilish kerak. Ulardan birinchisi ilgari mustamlakachilikning an'anaviy, bosqinchilik usullari bo'lgan bo'lsa, hozir Yangi mustahkamlakachilik

¹ Terrorizm – taraqqiyot kushandasi. Toshkent, 2002, 14-17-betlar.

va buyuk davlatchilik shovinizmidir. Masalan: Xemper ismli ingliz josusi SHayx-Mahmud nomi bilan ish yuritib, dastlab, 1730 yili vahhobiylar oqimi asoschisi Abdulvahhab bilan uchrashgan. Keyinchalik u o'z kundaliklaridan bunday yozgan: «Biz vahhobiylik deb atalmish din yaratdik. Najd shaharchasi uning markazi bo'lib qoldi. Buyuk Britaniyaning mustamlaka ishlari vazirligi faoliyatimizni ma'qullab, turli yordam ko'rsatib, kerakli anjomlar bilan ta'minlab turdi. . .». Demak, sun'iy ravishda vahhobiylik oqimini yaratib, musulmonlarni chin dindan qaytarish o'sha davrni aynan Buyuk Britaniya mustamlakachilariga kerak bo'lganligi ayon bo'ladi.



Foyaviy bo'shlikni tuldirish zarurati va mamlakatimizga karatilgan mafkuraviy taxdidlar haqida gapirganimizda quyidagilarga e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimizga karshi karatilgan mafkuraviy taxdidlarga tuxtalib utsak.

1. Islom xalifaligini tiklab, uning bayrogi ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirishga karatilgan intilishlar. Islom tarixidan ma'lumki xalifalikka Muxammad paygambar vafotidan keyin choriyorlar Abu Bakr (630-634), Umar (634-644), Usmon (644-656), Ali (656-661) raxbarlik qilishgan. Bu davrda xalifa dinning xam, davlatning xam boshligi raxnamosi xisoblangan. Sungra xalifalikka turli sulolalar kelishdi. Oxirgisi Usmonli turklar xalifaligi. Turkiya 1924 yili Respublika e'lon qilingach xalifaligi xam barxam topdi. Xalifalik tarix saxifalarida qolib ketgan esada, uni kayta tiklashga urinuvchi kuchlarning mavjudligi.

2. Yosh mustaqil davlatlarni qaytadan sobiq Ittifoqqa birlashtirish g'oyasi. Afsuski, sobiq Ittifoq respublikalarining ayrimlarida eski tuzumni qaytadan tiklashni xoxlovchilar, buni uzlari uchun goyaviy maqsad qilib olgan kuchlarning mavjudligi. Shu sababdan Prezident Islom Karimov «Bugun o'sha davr to'g'risidagi xaqiqatni xolisona aytadigan bo'lsak, u zamondagi xayotimiz .. – markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan yarim mustamlaka mamlakatga aylangan edi» deb baxo bergan edi. Demak, O'zbekiston o'z yulini tanlab olgan, endi orqaga, mustamlakachilikka yo'l yo'q.

3. Tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning moxiyatini soxtalishigacha urishishlar.

Islom Karimov: «Milliy istiqlol mafkurasi –xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir» asarida bu xaqda «Tarixdan ma'lumki, bir xalqni o'ziga tobe qilishni istagan kuchlar, avvalo, uni o'zligidan, tarixdan, madaniyatdan judo qilishga intiladi. Zararli ta'sirlar davom etaversa, millat o'zligini yo'qotishi, ming yillik an'analarini boy berib, olomonga aylanib qolishi xam xech gap emas», deydi. Shu sababdan, yot kuchlar tariximizni soxtalashtirishga, inkor qilishga urinadilar. Lekin endi ortga yo'l yo'q.

4. Axloqsizlikni yoyib, xalqni ma'naviy jixatdan buzishga qaratilgan intilishlar. Yot kuchlar mafkuraviy ta'sir utkazishga adabiyot, san'atning turli usullaridan xam foydalanmokda. Yurtimizga jangari va xayosiz filmlar kirib kelmoqda. «Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni

mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda"¹. Islom Karimov «Egali yurt erkin bermas» makolasida SHuning uchun ongi shakllanib ulgurmagan aksariyat yosh tomoshabinlar bunday filmlardan kupincha turli yovuzlik, yirtkichlik, shafkatsizliklarni urganadi, xolos. Natijada ularning diydasi kotadi, kalbidan toshbagirlik, zuravonlik, axloksizlik kabi illatlar joy olganini uzi xam sezmay koladi. Xatto shunday tomosha va filmlarning kaxramonlariga kur-kurona taklid kilishni istaydigan yigit-kizlar xam topiladi. Chunki, ular bunday uydirma talkinlar ta'sirida kul urayotgan ishi kandy ayanchli okibatlariga olib kelishini tushunib yetmaydi. Afsuski, bizning televideniyamizda xam shunday filmlarni namoyish etishga ortikcha ruju kuyilmokda», degan edi.

Turli mafkuraviy vositalar orkali mintakaviy va davlatlararo mojarolar keltirib chikarishga karatilgan xarakatlar buni ayrim mamlakatlar xududida faoliyat kursatayotgan ba'zi goyaviy-mafkuraviy markazlar uzlariga maksad kilib olgan. Ular muayyan mamlakat xududidan boshka mamlakatga karshi giyoqvand moddalar ta'kiklangan adabiyotlar, turli kurol-yarog kabi narsalarni giyoqvand moddalar, ta'kiklangan adabiyotlar, turli kurol-yarog kabi narsalarni nokonuniy tarzda olib utishga intilmokda, urinmokda. Islom Karimov «Bunday utaketgan xunrezlik, muttaxamligni uziga kasb kilib olgan bizning umumiy dushmanlarimizga mukaddas zaminimizda aslo urin bulmasligi kerak», ligini ta'kidlagan. Islom Karimov: «Oldimizga kuygan olijanob maksad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bulish, goyaviy bushlik paydo bulishga yul kuymaslik, begona va yot goyalarning xurijidan ximoyalanish, bunday tajovuzlarga karshi tura oladigan xar tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda», - deydi.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.81-b

II-BOB. BUZG‘UNCHI G‘OYALARGA QARSHI KURASH VOSITA VA USULLARI.


2.1. Yoshlar ma’naviyatiga yot tahdidlarga qarshi g‘oyaviy tarbiya usul va vositalari

Inson jamiyat a’zosi ekan, doimo turli gurux va jamoalarning vakili sifatida ularning ta’siri ostida bo’ladi. Ya’ni xar bir shaxsning fe’l-atvorida, xatti – harakatlarida u mansub bo’lgan millat, xalq, professional toifa, jamoa va oilaning ijobiy yoki salbiy ta’siri bo’ladi. Tarixiy shart-sharoit, davr, davlat tuzumi va o’sha jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy ta’sirlar uning dunyoqarashi, fikrlash tarzi, tafakkurida o’z aksini topadi.

Inson dunyoqarashiga ta’sirlarning ikki xil ko’rinishi bir qarashda inson fe’l – atvorini, guruh jamiyat ma’naviyatini ikkinchi bosqich ta’sirlar belgilaydiganday va birinchi bosqich ta’sirining axamiyati yo’qday ko’riladi. Ammo inson fe’l – atvorining shakllanishiga birinchi bosqich ta’sirini axamiyati kam emas. Shuo’rolar tuzumida odamlarning imonsiz, mute bo’lib shakllanishiga, aynan shu birinchi bosqich ta’sirlari orqali bo’lgan. Umuman, tarix tajribasidan kelib xulosa qiladigan bo’lsak, qaysi davlat, mamlakatni olmaylik, bosqinchilik siyosati yurgizilgan jamiyat odamlarining psixologiyasi mustaqil yurt fuqarolari psixologiyasidan keskin farq qiladi. Va bu inson fe’l-atvorini shakllanishiga makro bosqichning ta’siri naqadar axamiyatli ekanini ko’rsatadi.

Xo’sh, inson fe’l –atvoriga, gurux, jamiyat ma’naviyatiga ta’sir qiluvchi mafkuraviy omillarga nimalar kiradi?

Ezgu fikr, sog’lom g’oya Inson fe’l-atvoriga mafkuraviy ta’sir ko’rsatuvchi ushbu omillarni aloxida ko’rib o’tamiz.



Inson fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatuvchi xamda unda sog'lom muloqat madaniyatini shakllantirishda xalq e'tiqodi va ruxi juda qudratli ta'sir kuchiga ega buladi. Xalq ruxi va undagi e'tiqodni millatning eng ilg'or vakillari, mutafakkirlar ifoda etishadi. Masalan, Amir Temur va Alisher Navoiylarning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyatlari xalq e'tiqodining ulmas namunasi. Shu sababli jamiyatda yashovchi har bir fuqaro mana shunday xalq e'tiqodi ta'sirlariga berilgan va undan ta'sirlangan xolda shakllanadi. Agar inson bolasi tug'ilish onlaridan boshlab uning ilk rivojlanish davrlari xususiyatlariga e'tibor beradigan bo'lsak lastlab u tabiatan fakat o'z ichki xisssiyotlari, tuyg'ulari doirasida rivojlanadi. Ya'ni uning uchun o'z istak-xoxishlari, ehtiyojlari va ularning qondirishdan ortiq tashvish yo'qday. Lekin usha ehtiyojlar orasida ota-onasiga, eng yaqinlariga nisbatan xisssiy intilish, ular bilan emotsional muloqotga kirish istagi kuchli bo'lgani sabab u insonlar jamiyati va undagi munosabatlar me'yorlarini sekin-asta o'zlashtirib boradi. 3 yoshdan so'ng oiladagi mulokotga tengqurlar jamiyatidagi muloqot qo'shilishi munosabati bilan bola xudbinlik kayfiyatidan yanada tezrok voz kecha boshlaydi. Aks xolda jamiyat, ko'pchilik uning injiqliklarini ko'tarmaydi. Shu tariqa sog'lom muloqot muxiti bolani ko'pchilikni fikriga ergashish, ko'pchilik xaq deb e'tirof etgan axloq me'yorlarini egallash, insonparvarchilik tamoyillariga amal qilishga o'rgatadi. Shunday qilib, bola uchun keng ijtimoiy muxitdagi sog'lom g'oyalardan, xalq ruxining qadriyatlaridan to'la baxramand bo'lish imkoniyati tug'iladi. Kishida sog'lom muloqot madaniyatini shakllanishida ezgu fikrning ta'sirchanligi aloxida axamiyatga ega. Muloqot jarayonida fikrga, sog'lom g'oyaga ega bo'lishi bu –masalani bir tomoni. Uning boshqa muxim jixati ana shu fikrlarni bayon eta olish qobi liyatidir. Ya'ni nima xaqida gapirish emas, u to'g'rida qanday gapirish xam o'ta muhimdir. Mafkuraviy tarbiya va ta'sir jarayonida ham gapga chechanlik, so'z boyligi va uni auditoriyaga yetkaza olish muhim axamiyatga ega. So'z g'oyaviy ta'sir vositasi ekanligi. Milliy g'oyalarni xalq ongiga yetkazishda so'z asosiy ta'sir vositasi hisoblanadi. Shu sababli qadimgi Gretsiyada ritorika san'atiga juda katta e'tibor berilgan. XX asrning 60 –yillariga kelib tajriba shuni ko'rsatdiki, mafkuraviy va siyosiy targ'ibot

hamda ta'sir uchun so'z va nutqni mutlaq samarali deb bo'lmas ekan. Aytish kerakki, inson ongi xar doim xam mantiqqa bo'ysunavermaydi. Bu yo'l ko'proq ilm-fanga taalluqlidir. Odamning o'zi ishonishni hoqlamagan narsaga ishontirish o'ta mushkul ish. Kishilarga mafkuraviy ta'sir ko'rsatishda murakkab mantiqiy fikrlar orqali emas, soddaroq jonli tilda tushuntirishning ta'siri kattadir. Ya'ni, ommaga chiroyli ilmiy iboralardan ko'ra, tabiiy, odatiy, kundalik xayotda ishlatiladigan iboralar, so'zlar tizimi tezroq va kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Tajriba o'tkir siyosatdonlarning hech qachon uz nutqlarida g'ayritabiiy, ilmiy iboralardan foydalanmasligini ko'rsatadi. Shunday qilib, tinglovchiga ta'sir etuvchi va uning ishonchini uygotuvchi nutk shunday bulishi lozimki, uni tinglaganlar har bir ifoda etilgan suz ustida kamroq uylanishi, aksincha, tanish, uziga yokimli narsalar xususida gap borayotganini kalban xis qilib turishi kerak.


Mafkuraviy ta'sirning yana bir muxim xususiyati borki, u xam bo'lsa, muayyan qarashlar tizimini birdan, bir vaqtning o'zida ifoda etishga intilmaslik. Masalan, milliy qadriyatlarimizning uqtirish uchun ularning barchasini bir boshidan sanab utish shart emas. ya'ni, ona mehr-muxabbatning naqadar ulkan kuch ekani, bunga aloqador noyob udumlarimiz borligini anglash uchun oddiy ona allasining ta'sirchanligini anglash xam kuchli kechinmalarni uyg'otish mumkin.

Inson e'tiqodsiz, g'oyasiz, fikrlashsiz yasholmaydi. Insonda muayyan g'oya va e'tiqodni shakllantirish ijtimoiy omillar bilan bog'liq bo'lib, buning axamiyati bugun yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, g'oyaviy e'tiqodni tarbiyalash jarayonida yana-da axamiyatli bo'lib bormoqda. Shaxs e'tiqodi undagi barqaror teran fikr, tasavvurlar, bilimlar majmuiki, mafkuraviy dunyoqarash hamda milliy g'oyalar aslida ana shunday e'tiqodlar asosida shakllanadi. E'tiqod va dunyoqarash nisbatan barqaror va uygun bo'lib, u osonlikcha shakllanmaydi, xamda osonlikcha uni o'zgartirib bo'lmaydi. Shaxs e'tiqodi uning jamiyatdagi xulqini belgilovchi omil bo'lgani uchun xam uni shakllantirishga eng avvalo jamiyat va jamoatchilik, oila va barcha turdagi ta'lim muassasalari jalb etiladi.




Ta'sir ko'rsatuvchi manba-shaxs. Yuqoridagilarni yanada kengroq ko'rib chiqsak

1. Ta'sir ko'rsatuvchi shaxs –bu ta'lim beruvchidir.



2. Ta'sir (axborot) ning mazmuni – notiqning nima xaqda gapirayotgani xam mafkuraviy tarbiyada muxim o'rin tutadi.



Ulkan asoslangan ma'lumot – o'qimishli, tushungan odamlar auditoriyasiga mo'ljallangan. Emotsional (xissiyot uyg'otuvchi) ma'lumotlar –kichik yoshlar, ma'lumot darajasi pastroq shaxslar auditoriyasiga mo'ljallangan. Yozma mafkuraviy axborot - gazeta, jurnallar, kitob va darsliklar, yozma manbalarda mujassamlashgan ma'lumotlar.

Og'zaki mafkuraviy axborot – ma'ruza o'qish darsni bayon etish, munozara va suxbatlar o'tkazish. Ma'lumotlarning mazmundorligi va ta'sirchanligini ularning ommabopligi, bildirilgan fikrining ixcham va ravon bayon qilinishiga xam bog'liq bo'ladi.

2.2. Yot tahdidlarga qarshi kurashda oila va mahallaning ta'siri.

Prezident Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarining “Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar” nomli faslida bugungi kunda ma'naviyatimizga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va mezonlar chuqur tahlil qilingan. Muallif har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmasligini alohida ta'kidlagan. SHundan kelib chiqqan holda, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar bu boradagi eng muhim omillar sifatida keltirilgan.

Kitobda bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon tsivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lgani, bu tabarruk zaminda azal-azaldan madaniy va ma'naviy ildizlari teran, yuksak intellektual salohiyatga ega xalq yashab kelgani, ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, dunyoviy va diniy ilmlarning umumbashariy tsivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgani, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimiz

ekani g'urur bilan ta'kidlanadi. Xususan, bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan «Avesto»dek bebaho ma'naviy obidaning o'rni va ahamiyati haqida batafsil fikr yuritiladi. Muallif «Avesto»ning tub ma'nomohiyatini belgilab beradigan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» degan tamoyilni hozirgi zamon uchun ham behad ibratli saboq manbai deya ta'riflaydi.

Kitobning mazkur faslida muallif millatimiz ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o'rni va ta'siri beqiyos ekanini ta'kidlaydi, uni inson dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar - yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori shakllanadigan makon deb baholaydi. Muallif yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz ekanini uqtiradi.

Kitobda ma'naviy hayotimizni yuksaltirishda mahallaning roli va ta'siri katta ekani qayd etiladi, yurtimizdagi ma'naviy iqlim va vaziyatning o'ziga xos ko'zgusi bo'lgan mahallalarga ma'naviy-ma'rifiy olamimizni yuksaltirishda yanada ko'proq imkoniyat berish zarurligi qayd etiladi.

Muallif ma'naviyatni shakllantirishga bevosita ta'sir qiladigan muhim hayotiy omil – ta'lim-tarbiya tizimiga alohida e'tibor qaratib, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish bilan bog'liq jarayonni tahlil qiladi. U uzoq yillar mobaynida bu sohada talay muammolar yig'ilib qolganini, o'zi shaxsan ushbu dastur loyihasi ustida sakkiz oy mobaynida ishlash jarayonida bunga amin bo'lganini ta'kidlaydi. Shuning uchun ham bu o'ta og'ir va mas'uliyatli, ammo hal qilishni aslo paysalga solib bo'lmaydigan ishni qadam-baqadam, izchillik bilan bajarish uchun astoydil ish olib borilganini ta'kidlaydi.

Ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar boshlangan dastlabki yillarda jahon tajribasi va hayotda o'zini ko'p bor oqlagan haqiqatdan kelib chiqib, agar bu maqsadlarimizni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshira olsak, tez orada hayotimizda ijobiy ma'nodagi «portlash effekti»ga, ya'ni yangi ta'lim modelining

kuchli samarasiga erishamiz, degan fikr bugun amalda o'z tasdig'ini topayotganini muallif mamnuniyat bilan e'tirof etadi.

Darhaqiqat, istiqlol davrida barpo etilgan, barcha shart-sharoitlarga ega bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, zamonaviy kasb-hunar va ilm-ma'rifat sirlarini o'rganayotgan, hozirdanoq ikki-uch tilda bemalol gaplasha oladigan minglab o'quvchilar, katta hayotga yo'llanma olayotgan, o'z iste'dodi va salohiyatini yorqin namoyon etayotgan yosh kadrlari misolida ana shunday orzu-intilishlari bugunning o'zida o'z hosilini berayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Eng muhimi shundaki, «portlash effekti»ning haqiqiy mohiyati va ahamiyati vaqt o'tishi bilan, tobora kamol topayotgan sog'lom va barkamol avlodning hayotga tobora ildam kirib borishi bilan yanada yaqqolroq seziladi.

Muxtasar qilib aytganda, oxirgi yillarda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz biz ko'zlagan ezgu niyatlarimizga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratgani ushbu asarda ishonch bilan ta'kidlanadi.

Ahli bashar ma'naviyatsiz bo'lmaydi, chunki aslida inson mohiyati moddiyat va ma'naviyatning tutashuvidadir. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa xalqlarining o'ziga xos ma'naviy olami mavjud. Ushbu ma'naviy olamlar doimo bir xil saqlanmaydi, zamon va makonda o'zgarib, goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turadi. Lekin ma'naviyat hodisasini tadqiq etish oson ish emas, bu hozirgi kunda ushbu ilmni rivojlantirishga urinishlar o'ta qiyinchilik bilan samara berayotganida ham sezilmoqda. Masalan, O'zbekistonda barcha oliy o'quv yurtlarida "Ma'naviyat asoslari" maxsus fan sifatida 1997 yildan o'qitila boshlagan bo'lsa, shundan beri bu mavzuda qator tadqiqotlar, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlari tayyorlandi va nashr etildi. Ularning har biri fan rivojiga ozmi-ko'pmi muayyan hissa qo'shganligini inkor etmagan holda, tan olish kerakki, ma'naviyat hodisasining mohiyatini teran ochib beruvchi, sohaning ko'pchilik xodimlarini har jihatdan qoniqtira olgan ta'riflar

hanuz keng iste'molga kirmadi. Buning turli sabablari bor. Ammo, bizning nazarimizda, eng birinchi sabab shu kungacha millat ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar biror kitobda aniq belgilab olinmaganida edi. Ayni shu vazifa O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida birinchi marta aniq va mukammal amalga oshirildi.

Ma'naviyat hodisasi asosan ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: shaxs ma'naviyati va millat ma'naviyati. Agarchi, tarixan va nazariy jihatdan millat ma'naviyati, tom ma'noda olganda, ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyatining majmuidan iborat bo'lsa-da, voqelikda har bir shaxs ma'naviyati millat ma'naviyatidan oziqlanadi, uning asosida kamol topadi. Prezidentning g'oyatda hikmatli iborasi bilan aytganda, har bir inson "o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi"¹. Agar bir millat vakili o'z ajdodlarining ma'naviy merosidan butkul bebahra qolgan bo'lsa va muayyan sharoitda to'liq boshqa millat madaniyati ruhida tarbiya olsa, uni endi o'z millatining to'laqonli vakili deyish qiyin. Ammo eng yomon holat Sho'rolar davrida yuz berdi. Bu davrda sun'iy birlashtirilgan ulkan bir hududning barcha aholisi, millatidan qat'i nazar, kuchli va har taraflama tazyiq ostida muayyan maqsadlarda maxsus ishlab chiqilgan yolg'on mafkura ruhida majburiy "tarbiya" qilindi. Bu zug'umga barcha ham birday bo'y bergani yo'q, ammo afsus bilan e'tirof qilishga to'g'ri keladiki, bunday vahshiyona va makkorona "ta'lim-tarbiya" tizimi juda ko'p insonlar ongida og'ir asoratlar qoldirdi. Eng achinarlisi, bugungi aksariyat ijtimoiy-gumanitar sohaga mansub ziyolilarimiz bunday mafkuraviy tazyiqdan eng ko'p ziyon ko'rdilar. Mustaqillik tufayli biz bugun endi ushbu noxush asoratlarni ongimizdan bartaraf qilishning qulay imkoniyatlarini qo'lga kiritdik. Ammo bor imkoniyatdan unumli foydalanish uchun ham inson o'z holatiga to'g'ri baho bera bilmog'i, o'z ustida jiddiy mehnat qilishga havsala qilmog'i kerak bo'ladi.

¹ Karimov I.A. .Asarlar. 1-jild, T., 1996, s. 81

Islom Karimov xalq ma'naviyatini yuksaltirish deganda nimani ko'zda tutganligini hali mustaqillikka erishmasimizdan - 1990 yili O'zbekiston Prezidenti sifatidagi birinchi nutqidayoq ochiq-oydin bayon etgan edi. Prezident ushbu ma'ruzasida inson ruhiyatining nozik va murakkab tomonlari bilan, "xazinalarga to'la milliy-tarixiy an'analar bilan, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik" yaqin o'tmishimizda jamiyatga qanchalar zarar keltirganligini qayd etib, yangicha vazifalarni olg'a surgan edi:

"Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish, so'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqodining erkinligini ta'minlashimiz kerak"¹.

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov yangi kitobida o'zining ushbu fikrlarini yanada rivojlantiradi va muayyanlashtiradi: "Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi."

Prezidentning yangi asarida bu to'g'ridagi qarashlarini umumiy ifodasi bilan cheklanib qolmay, ushbu mavzuga alohida fasl bag'ishlab, unda milliy ma'naviyatimizning shakllanishiga asos bo'lgan, bugungi kun yosh avlod ma'naviy olamini shakllantiradigan asosiy mezonlarni birma-bir batafsil ta'riflab beradi. Biz bu o'rinda kitobning tegishli qismini to'liq takrorlashga harakat qilmasdan undagi eng muhim jihatlarga diqqatni qaratib o'tamiz.

¹ Karimov I.A.. Istiqlol va ma'naviyat. T.-«O'zbekiston»- 1994, s. 65-66

Prezident I.A.Karimov milliy ma'naviyatimizni shakllantiruvchi asosiy mezonlar haqida gapirar ekan, oldingi asarlarida ham qat'iy turgan printsiptini rivojlantirib, ulug' ajdodlarimiz merosida aks etgan diniy va dunyoviy bilimlar majmuiga teng ko'z bilan qarash, ularni uyg'unlikda olib o'zlashtirish lozimligini, faqat shundagina ma'naviy mukammallikka erishish mumkinligini qayta-qayta ta'kidlaydi. Chunki bundan boshqacha yondoshuv albatta biryoqlamalikka, demakki, ma'naviy noto'kislikka sabab bo'lishi aniq. Kitobda xalqimizning o'tmishda islom ilmlari rivojiga qo'shgan ulkan hissalarini jahon tan olgan ulug' allomalari Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, buyuk tasavvuf pirlari Abduxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshband kabi tabarruk siymolarning millatimiz ma'naviy takomiliga qo'shgan xizmatlari bilan bir qatorda, matematika va astronomiya singari aniq fanlar; meditsina, farmakognoziya, mineralogiya kabi tabiiy fanlar; logika, filologiya va jamiyatshunoslik fanlari sohalorida jahon ilmi rivojiga barakali ta'sir ko'rsatgan qomusiy allomalar Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug'bek kabi mo'tabar zotlarning har biri xususida alohida to'xtalib, ularning nafaqat milliy ma'naviyatimiz, balki bashariyat ma'naviy takomiliga ko'rsatgan ta'sirlarini birma-bir qayd etib o'tilishi bu soha olimlari uchun muhim nazariy-metodologik namuna sifatida qabul qilishga arziydi.

Prezident I.A.Karimov bu buyuk siymolar shaxsiyatiga nega bunchalik ahamiyat qaratayotganligini shunday izohlaydi: "Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanligini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi

barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman".¹

Kitobda "tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan" Sohibqiron Amir Temurning mumtoz siymosi, uning nabirasi olim va hukmdor Mirzo Ulug'bekning ilmiy jasorati chuqur ehtirom bilan yodga olinadi. Kitob muallifi o'z hissiyotlarini shunday bayon qiladi: "Shaxsan men "Temir tuzuklari" ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman..."

Ma'lumki, o'z vaqtida 1991 yil Alisher Navoiy yili deb e'lon qilingan va o'sha yil to'kin kuzning birinchi oyida o'zbek milliy ma'naviyatining quyoshiga bag'ishlanadigan asosiy tantana va tadbirlarni o'tkazish belgilangan edi. Ollohning inoyatini qarang-ki, xuddi ushbu tantanalar boshlanishi oldidan mamlakatimiz siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritdi va sentyabrning birinchi kuni Mustaqillik bayramiga aylandi. Prezidentimiz "millat bayrami" deb atagan Mir Alisher Navoiyning qutlug' to'yi, shunday qilib, "O'zbekistonimiz hayotiga alohida fayz, tarovat baxsh etdi", "yurtimiz, elimiz tarixida qutlug' keldi, unutilmas sana bo'lib qoldi"².

Prezident o'z asarida XX asr boshlarida el-yurt manfaati uchun jonlarini tikkan ma'rifatparvarlarimiz Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurrauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Usmon Nosir kabi yuzlab fidoiy insonlarning ma'naviy jasoratini, ulardan keyin xalq orasida nom qozongan Qori Niyoziy, Toshmuhammad Sarimsoqov, Habib Abdullaev, Sa'di Sirojiddinov, Obid Sodiqov, Yahyo G'ulomov, Ozod Sharafiddinov kabi ilm-fan arboblari, Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Zulfiya, Said Ahmad singari shoir va adiblar, Lutfixonim Sarimsoqova, Halima Nosirova, Olim Xo'jaev, Razzoq Hamroyev va boshqa atoqli san'atkorlarning xizmatlarini minnatdorlik bilan eslab o'tadi. Shu bilan birga Yangi davr, ya'ni XVII – XX asrlarda ona zaminimiz – Turkistonda yuz bergan

¹ Karimov I.A.. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., "Ma'naviyat",2008. S.44.

² O'sha kitob, s.100

siyosiy parokandalik, hukmron kuchlarning uzoqni ko'rolmasligi va ma'naviy zaifligi, bularning oqibatida xalq boshiga tushgan baloyu kulfatlarni ham taassuf bilan qayd etishni unutmaydi.

Shunday qilib, yosh avlod ma'naviyatini shakllantiradigan asosiy mezonlar, yoki ma'naviy hayot mezonlari deganda nimani tushunish kerakligi haqida Prezidentimizning yangi kitobida aniq ko'rsatmalar berilgan. "Mezon" tarozu degani, ya'ni aniq o'lchov, meyor, Yevropa terminologiyasida "kriteriy". Demak, biz yoshlarning ma'naviy tarbiyasida nimalarga tayanishimiz kerak, yoshlarga kimlarni ibrat qilib ko'rsatishimiz durust bo'ladi, qaysi o'lchov, qanday meyorlarni asos qilib olishimiz lozim – bular hammasi kitobda aniq ko'rsatib, nomma-nom sanab berilgan. Bular – ulug' ajdodlarimiz yaratgan ulkan va qutlug' ma'naviy (ilmiy, badiiy, falsafiy) meros, ularning ibratli hayotlari, muqaddas dinimiz, qadriyatlarimizda ifodalangan buyuk va boqiy haqiqatlar, yuksak tuyg'ular.

Prezident I.Karimov o'z kitobida bu haqiqatlarni, bu tuyg'ularni yosh avlod ongiga singdirishning uch tabarruk makoniga alohida e'tibor qaratadi: ularning birinchisi –oila, ikkinchisi – mahalla, uchinchisi – ta'lim-tarbiya tizimi. Agar shu uch makonda ma'naviy muhit ko'ngildagidek bo'lsa, hamma ish ko'ngildagidek bo'ladi, agar ular tanazzulga qarab ketsa, butun jamiyat halokatga yuz tutadi. Afsuski, muayyan sabablarga ko'ra bugungi kunda har uch makonda ham muammolar ancha-muncha yig'ilib qolgan. Kitobda oila ma'naviy muhitiga alohida e'tibor ajratilgan. Ba'zi ota-onalarning o'sib kelayotgan yosh farzandlarining qiziqish va intilishlariga, ularning "ongu tafakkurida har kuni bir o'zgarish yuz berib, ko'zida yangi-yangi savollar paydo bo'layotganiga" jiddiy ahamiyat bermasligi, boz ustiga ba'zi ota-onalar bola oldida o'zini tutishni bilmay, axloq-odob bobida farzandlariga o'rnak bo'lish o'rniga ahli oilasiga qo'pol muomala bilan farzandlari ruhiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, hatto ba'zi oilalarda bolaning ma'naviy olamida og'ir asoratlar qoldirishi mumkin bo'lgan o'zgaralar baxtini ko'rolmaslik, fisqu fasod, ig'vo muhiti ham mavjudligi taassuf bilan qayd etiladi va shunday xulosa qilinadi: "Biz o'z farzandlarimizning baxtu saodatini, iqbol va kamolini ko'rishni istar ekanmiz, nafaqat oiladagi, balki mahalla-kuydagi

odamlarning xatti-harakati ham bolaning shakllanib kelayotgan sof qalbi va ongiga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida doimo o'ylashimiz, bu masalada zimmamizda qanday ulkan mas'uliyat borligini unutmasligimiz zarur." Muallif har qaysi xonadondagi ma'naviy iqlimni yaxshilash haqida bosh qotirar ekan, yana badiiy so'z qudratiga murojaat qilishni maslahat beradi. Mumtoz adibimiz Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar"ida tasvirlangan o'zbek oilalariga xos odob va axloq namunalarini ibrat qilib ko'rsatadi. O'zbek xalqining azaliy bolajonligi, oilaparvarligini iftixor bilan ta'kidlar ekan, muallif bunday ezgu tuyg'ular farzandlarni "yoshlik chog'idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma'naviyat asosida voyaga yetkazish" yo'lida sarflanishi lozimligini alohida uqdiradi.

Mahalla – insonni jamiyat bilan uyg'unlashtiradigan hamda shu ruhda tarbiyalaydigan eng katta sahovatli go'sha va beqiyos Vatan. Muallif xalqimizning "Mahalla – ham ota, ham ona" degan hikmatli iborasini keltirib, bu so'zlarni millatimiz uchun "hayotiy haqiqatning ifodasi" deb ta'riflaydi va mahalla - tarbiya maktabi sifatidagi vazifasiga alohida urg'u beradi. Tadqiqot yuzasidan quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchi, mustaqillik davrida oila ma'naviy muhitini yaxshilash, azaliy qadriyatimiz bo'lgan mahallaning ijtimoiy maqomini ko'tarish, ta'lim-tarbiya sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlar haqida eslab o'tish bilan bir qatorda bu sohalarning bugungi dolzarb muamolari haqida batafsil mulohazalardan keng foydalanish. "Shuni unutmaslik kerakki, -deb yozadi Prezident, - kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi." Shunday ekan, "bu sohada yuzaki, rasmiy yondoshuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi."

Ikkinchi, ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi, davlat va jamiyat nazoratidagi umummilliy masala ekanini unutmaslik. Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajratib bo'lmaydigan uyg'unlikda olib borilishi lozim. Ta'lim–tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir. Ammo yaqin o'tmishda bizda bolaga tabiiy va aniq fanlar bo'yicha bilim berish asosiy

maqsadga aylanib, bolaning ma'naviy tarbiyasi o'z holiga tashlab qo'yilgan, ko'pincha faqat siyosiy-tashkiliy tadbirbozlikka aylanib ketgan edi. Davlatimiz va hukumatimizning "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi" va boshqa ta'lim jarayoni mazmunini tubdan takomillashtirishga xizmat qiluvchi islohotlari tufayli bu sohaga yangicha e'tibor qaratildi. Ammo hanuz bu sohada hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar birtalay ekanligi kitobda batafsil bayon etilgan.

Uchinchidan, ta'lim-tarbiya jarayonida milliy-ma'naviy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash masalasiga keng e'tibor berish.

III-BOB. " BUZG'UNCHI G'OYALARNING SALBIY OQIBATLARIGA QARSHI KURASH USULLARI " MAVZUSINI O'QITISHDA YaNGI INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

3.1. Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat g'oyaini singdirish yuzasidan uslubiy maslahatlar.

Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. SHunday ekan, yurtimizda yosh avlodni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz lozim. Toki, yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning axloq-odob tushunchalarini rad etadigan, bizga mutlaqo begona g'oyalari ham ularga o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi.

Insoniyatning azal-azaldan g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelishi o'zgarmasdir.

Yosh avlodni ma'naviy tajovuzlardan himoya qilishda, xalqimizdagi uchrab turadigan va azaldan uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan

noma'qul odatlarni anglash, ularni bartaraf etish yoki ular keltiradigan noxush holatlarning oldini olish bugunning zarurati hisoblanadi, chunki ular millat va jamiyatni ichdan kemiruvchi illatlardir.

Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, kooruptsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish vazifasi, eng avvalo, keng jamoatchilikning, ayniqsa, ziyolilar, olim va adiblar, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlangan insonlarning zimmasiga tushadi.

Odamzod va jamiyat hayotida og'ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg'usi avvalambor boshqalarni ko'rolmaslik, ularning yutug'idan quvonish o'rniga, kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo'ladi. Azal-azaldan ochiqko'ngil, samimiy va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi.

Ma'naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat bu – sotqinlikdir. Har qanday yovuzlikni sotqinlik keltirib chiqaradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonmagan odam qo'rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo'lgan odamning rahbarlik kursiga o'tirishi, tinchlik, osoyishtalikka rahna solishi aniq. Tarixdan mamlakatda fuqarolar va davlatlararo urushlarning boshlanishiga ko'pincha ana shunday sotqin kimsalar sabab bo'lganligi ma'lum.

Mashhur faylasuflardan biri hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniy fikrlarni bayon qilgan: “Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma – nari borsa, ular senga hiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi”.

«Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asaridada illat sifatida ochib berilgan, bartaraf etilishi lozimligi uqtirilgan hodisalardan yana biri — loqaydlikdir. Prezident I.A.Karimov fikricha, birovning hayotiga, yon-atrofdan sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib

yashaydigan odamdan qo'rqish kerak. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisoli begona odamdek qaraydi.

Bunday holatlarga barham berish uchun har qaysi fuqaro, har qaysi inson, jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga intilib yashashi, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoyalash yo'lida o'z burchi va mas'uliyatini chuqur anglab olishi lozim.

«Dushmanlardan qo'rqma – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqma nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rq – ular seni o'ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi».

Har bir inson hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan ana shunday fikrlarni unib o'sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-ona, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz – yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o'quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo'nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi – jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Albatta, bu masala bo'yicha ijtimoiy fanlar sohasida ma'lum ishlar qilinmoqda, ammo xolisona aytadigan bo'lsak, bu borada chop etilgan ko'pchilik darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ommabop adabiyotlarning ham, aksariyat soha mutaxassislarining ham saviyasi talab darajasida emasligini qayd etishga majburmiz. Bunday noxush holatlarga barham berish vaqti keldi.

Hech shubhasiz, yurtimizda erkin, adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o'ziga xos, shu

bilan birga, mutlaqo yangicha ma'no kasb etib bormoqda. Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas.

Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik printsiplar mohiyatiga, o'z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyati talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor.

Bu boradagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo'lgan o'z burchi va mas'uliyatini aynan ana shu asosda aniqlab olishi zarur.

Faqat ana shunday asosda yoshlarni o'z fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining - ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur¹.

Ushbu mavzuni yoritishda befarqlik, loqaydlik millat oldida kechrimsiz gunoh ekanini tarixiy-badiiy misollar yordamida tushuntirish, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma'naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilishi uchun zarur bo'lgan vazifalarni yoritib borish hamda milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlashga alohida e'tiborni qaratish lozim.

Bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008, 124-127-betlar.

qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo'lgan zararli g'oyalar va mafkuraviy xurujlar mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarashni mustahkamlash, g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashda muhim ahamiyat kasb etishi «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» asaridada alohida ta'kidlanadi.

Prezident I.A.Karimov bu borada ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalar tayyorlash — bugungi kundagi eng muhim vazifalar ekanini ko'rsatib beradi.

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodik va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan muhim ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz I.A.Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharri savollariga javob berar ekan shunday ta'kidlagan edi: «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan qaerdakt mafkuraviy bo'shliq vujudga kelsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi ham tayin»¹. Ko'p sinovlar, azobu-uqubatlar, xatolar, fojealar, urushlar, qatog'onlarni boshidan kechirgan asrimiz poyoniga yetayotgan, insoniyat yangi asr bo'sag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham shiddatli tus olayotganiga ushbu suxbatda nihotyatda keng e'tibor qaratiladi. Boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda dunyoda ikkita qarama-qarshi qutb barham topgan bo'lsada, turli xil manfaat va maqsadlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. Ochiq aytish kerakki, bu tortishuvlardan

¹ Karimov I.A.Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin // Biz kelajagimizni o'z qo'limitz bilan quramiz. T. 7.- T.: «O'zbekiston», 1999.- 84-bet.

asosiy ko'zlangan maqsad- inson, avvalombor yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning xis-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish. Fikr qaramligi, tafakkur qulligi esa har qanday iqtisodiy yoki siyosiy qaramlikdan ham ko'ra dahshatlidir.

Bugungi kunda odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlarigagina xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma'no-mazmundagi mafkuraviy kuchlarning ta'sirini doimiy ravishda sezib yashaydi. Axborot asri, elektronika asri deb atalgan XX asr nihoyasida bu ta'sirlardan xoli bo'lish deyarli imkonsizdir. Mana shunday bir vaziyatda odam mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan xayotiy qadriyatlariga ega bo'lishi har qachongidan muhimroq bo'lib qolmoqda. Mana shart-sharoitlarning barchasi ma'naviyat, milliy mafkura ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Bugungi kunda g'oyani, fikrni taqiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. SHu bois ham yurtboshimiz G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishishgina mukinligiga asosiy e'tiborni qaratib kelmoqda¹. SHunday ekan biz ham farzandlarimizni ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalashimiz uchun ularning ongi va qalbida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o'zligini, shu bilan birga dunyoni chuqur anglaydigan, zamon barobar qadam tashlaydigan insonlar bo'lib yetishsin.

Milliy g'oyaning asosiy maqsadi fuqarolarni, keng jamoatchilikni asosiy g'oyalari, maqsad va yo'nalishlari bilan O'zbekistonning taraqqiyot yo'lining ma'no va mazmuni, milliy-madaniy negizlari, xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularda ishonch uyg'otish, ularni adolatli, demokratik fuqarolik jamiyati qurilishi maqsadlarini amalga oshirishga uyushtirishda ma'naviy-ruhiy rag'batlantirishda namoyon bo'ladi. Milliy istiqlol g'oyasi fuqarolarni g'oyaviy jihatdan tarbiyalaydi.

¹ Karimov I.A.Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin // Biz kelajagimizni o'z qo'limitz bilan quramiz. T. 7.- T.: «O'zbekiston», 1999.- 88-bet.

G'oya bilan g'oyaning, fikr bilan fikrning, jaholatdan ma'rifatni farqini anglashga, ma'rifatga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashga xizmat qiladi. Fuqarolarda milliy istiqlol g'oyasiga «zid» bo'lgan yot va begona, zararli g'oyalardan saqlanishga, unga nisbatan fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan javob berish, unga nisbatan doimo tayyor bo'la olish «immunitetini» shakllantiradi. Milliy istiqlol g'oyasi mamlakatning oldida turgan ulug', bunyodkorlik ishlari undan ko'zlangan asosiy maqsad insonlarni erkin va farovon hayotga erishish, ozod va obod Vatan qurish yo'lida har bir kishi uchun harakat yo'nalishi bo'lishga qaratilgan. Milliy g'oya hech qachon kishilarning ongi va dunyoqarashini «boshqarish»ni, ularni yana allaqanday «qolipga», «yagona andozaga» solishga qaratilgan emas.. U fikrlar, g'oyalar xilma-xilligiga asoslanadi. Erkin fikrni uyg'otish va fikr erkinligini kafolatlab berish, o'zgalar fikrini tinglash, eshitish va aytishga imkoniyat yaratadi. Demak, milliy istiqlol g'oyasi «yagona g'oya»ga intilishdan mutlaqo begona bo'lganligi bilan ham boshqa nosog'lom g'oyalardan farq qiladi.

Insoniyatning azal-azaldan g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashib kelishi o'zgarmasdir.

Yosh avlodni ma'naviy tajovuzlardan himoya qilishda, xalqimizdagi uchrab turadigan va azaldan uning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib kelayotgan noma'qul odatlarni anglash, ularni bartaraf etish yoki ular keltiradigan noxush holatlarning oldini olish bugunning zarurati hisoblanadi, chunki ular millat va jamiyatni ichdan kemiruvchi illatlardir.

Birinchi navbatda xudbinlik va loqaydlik, qarindosh-urug'chilik va mahalliychilik, kooruptsiya va manfaatparastlik, boshqalarni mensimaslik kabi illatlardan jamiyatimizni butunlay xalos etish vazifasi, eng avvalo, keng jamoatchilikning, ayniqsa, ziyolilar, olim va adiblar, san'at va madaniyat ahli, o'zini ma'naviyat sohasiga bag'ishlangan insonlarning zimmasiga tushadi.

Odamzod va jamiyat hayotida og'ir asoratlar qoldiradigan hasad tuyg'usi avvalambor boshqalarni ko'rolmaslik, ularning yutug'idan quvonish o'rniga, kuyinish, ichiqoralik oqibatida paydo bo'ladi. Azal-azaldan ochiqko'ngil, samimiy

va mehnatkash, yaxshilikni yuksak qadrlaydigan xalqimiz bunday illatlardan doimo hazar qilib keladi.

Ma'naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat bu – sotqinlikdir. Har qanday yovuzlikni sotqinlik keltirib chiqaradi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lmagan, ularga ishonmagan odam qo'rqinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo'lgan odamning rahbarlik kursiga o'tirishi, tinchlik, osoyishtalikka rahna solishi aniq. Tarixdan mamlakatda fuqarolar va davlatlararo urushlarning boshlanishiga ko'pincha ana shunday sotqin kimsalar sabab bo'lganligini ko'rsatib borish kerak.

Mana shundagina yoshlarda biz quyidagi ko'nikmalarni shakllantirib borishga erishamiz:

Birinchidan, yoshlarda yuksak g'oyaviy salohiyat shakllantirishga erishiladi.

Ikkinchidan, yoshlarda vazminlik, sabrlilik singari qadriyatlarimiz shakllantiriladi.

Uchinchidan, yoshlarimiz tinchlikni asrash, uning qadriga yetish, amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim negizi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ekanini qalban his etishadi.

3.2. “ Buzg‘unchi g‘oyalarning salbiy oqibatlariga qarshi kurash usullari ” mavzusini o‘qitish yuzasidan dars ishlanmasi

MAVZU :	“ BUZG‘UNCHI G‘OYALARNING SALBIY OQIBATLARIGA QARSHI KURASH USULLARI ”
----------------	---

1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli

<i>Mashg‘ulot vaqti-2 soat</i>	Talabalar soni: 25 – 35 gacha
<i>Mashg‘ulot shakli</i>	Ma’ruza
<i>reja</i>	1. Globallashuv va uning yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’siri 2. Buzg‘unchi g‘oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta’siri
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi</i> o‘quvchilarga globallashuv va uning yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’siri, buzg‘unchi g‘oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta’siri, bu boradagi asosiy ustuvor yo‘nalishlari hamda insonlar ijtimoiy faolligi masalalarini yoritib berish	
<i>‘edagogik vazifalar:</i>	<i>O‘quv faoliyati natijalari:</i>
<ul style="list-style-type: none"> • Globallashuv va uning yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’siri to‘g‘risida ma’lumotlar berish; • Buzg‘unchi g‘oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta’siri xususida tushuncha berish 	<ul style="list-style-type: none"> • O‘quvchilar Globallashuv va uning yoshlar ma’naviyatiga salbiy ta’siri to‘g‘risida bilib oladilar; • Buzg‘unchi g‘oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta’siri xususida tushunadilar
<i>Ta’lim berish usullari</i>	“piramida”, “O‘rgimchak”, “FSMU”, “Insert” texnologiyalaridan foydalanib guruh bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, namoyish qilish
<i>Ta’lim berish shakllari</i>	Jamoaviy, guruxlarda
<i>Ta’lim berish vositalari</i>	Ma’ruza matni, o‘quv materiallari, slaydlar, tarqatma materiallar.
<i>Ta’lim berish sharoiti</i>	Auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og‘zaki nazorat: savol-javob

“ BUZG‘UNCHI G‘OYALARNING SALBIY OQIBATLARIGA QARSHI KURASH
USULLARI ”

mashg‘ulotining
TEXNOLOGIK XARITASI.

<i>Ish jarayonlari vaqti</i>	<i>Faoliyat mazmuni</i>	
	<i>O'qituvchi</i>	<i>Talaba</i>
1 bosqich. Kirish (10 daqiqa)	1.1. Ma'ruzaning mavzusi, rejasini e'lon qiladi, o'quv mashg'ulotining maqsadi va o'quv faoliyat natijalarini tushuntiradi (1-ilova)	Tinglaydi, mavzuni yozib oladi
	1.2. Mashg'ulotni o'tkazish shaklini e'lon qiladi	Yozib oladi
2 bosqich. Asosiy jarayon (60 daqiqa)	2.1. Mavzu rejasining birinchi punkti rejasi bo'yicha ma'ruza qiladi (2-ilova) Ma'ruza bo'yicha "piramida" usulidan foydalangan holda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Globallashuv va uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'siriga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalar? (3-ilova).	Yozadi, savolga javob beradi.
	2.2. Mavzu rejasining ikkinchi 'unkti bo'yicha ma'ruza qiladi (4-ilova). Ma'ruza bo'yicha "O'rgimchak" usulidan foydalangan xolda talabalarga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: Buzg'unchi g'oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri? (5-ilova)	Yozadi, savolga javob beradi.
	2.2. Rossiyaning jahon geosiyosiy munosabatlari tizimidagi tutgan o'rni masalasini «Kichik guruhlarda ishlash» orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi. "FSMU" texnikasidan foydalangan holda guruhlariga to'shiriqlar beradi (6-ilova). Guruhlarda ishlashga yordam beradi Qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanishga imkon yaratadi. Diqqatlarini kutiladigan natijaga jalb qiladi. Har bir guruh to'shiriqlarini - qog'ozlarga tushirib, taqdimotini o'tkazishga yordam beradi, bilimlarini umumlashtiradi, xulosalarga alohida e'tibor beradi. To'shiriqlarning bajarilishini qay darajada to'g'ri ekanligini diqqat bilan tinglaydi Fikrlarini tinglab, umumlashtiradi.	Savollarga javob beradilar, erkin bahs-munozara yuritadilar. Guruhlarda ishlaydilar.
3 bosqich. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1 Mavzu bo'yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydilar
	3.2. Talabalarining baholash mezonlarini e'lon qilinadi	Yozib oladi
	3.3. O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar beradi (7-ilova)	Javob yozadi
	3.4 Navbatdagi mashg'ulotda ko'riladigan mavzuni e'lon qiladi va "Aqliy xujum" usulida jadvalga mustaqil ta'limga tayyorgarlik ko'rishlarini so'raydi.	"Insert" usulida jadvalni to'ldiradi.

1-ilova

MAVZU: “BUZG‘UNCHI G‘OYALARNING SALBIY OQIBATLARIGA QARSHI KURASH USULLARI”

Reja.

1. Globallashuv va uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'siri
2. Buzg'unchi g'oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri

O'quv mashg'ulotining maqsadi: o'quvchilarga milliy mafkurani shakllantirish va hayotga tadbiq etishda ta'lim tizimi oldidagi vazifalar, milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalari uning tarbiyaviy ahamiyati, jamiyat hayotini demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishning asosiy ustuvor yo'nalishlari hamda insonlar ijtimoiy faolligi masalalarini yoritib berish

- ***O'quv faoliyatining natijasi:*** O'quvchilar milliy mafkurani shakllantirish va hayotga tadbiq etishda ta'lim tizimi oldidagi vazifalar to'g'risida haqida bilib oladilar; Milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalari uning tarbiyaviy ahamiyati tushunadilar.

2-ilova

Mavzuning 1-masalasi Globallashuv va uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'siri

Mustabid davlatlarning o'ziga xos boshqa xarakterli xususiyati jamiyatning harbiylashtirilishi, «harbiy lager» yoki «qamal qilingan qalha»dan iborat g'oyaviy-psixologik vaziyatni vujudga keltirishdan iboratdir. Bunda mamlakat ichida harbiy fanatizm vaziyati avj oldirilibgina qolmasdan, shu bilan birga, agressiv tashqi siyosat ham amalga oshiriladi. Bu siyosat harbiy-hududiy va mafkuraviy bosqinchilik qilishga, o'zining mustabidchilik tartiblarini keng miqyosda qaror toptirishga qaratiladi.

Lekin tarixiy haqiqat shundan iboratki, mustabidchilik mafkuralarining turli andozlari va ularning loyihalari asosida yaratilgan demokratiyaga qarshi tuzumlarning pirovard natijada halokatga uchrashi muqarrardir. Buni sobiq


sotsialistik mamlakatlar, sovet davlati, gitlerchilar Germaniyasi va fashistlar Italiyasi, Kampuchiyadagi Pol Pot rejimi kabi mutlaq haqiqatni dahvo qiluvchi mafkuralarning tarixan istiqbolsiz bo'lgani ham yaqqol namoyish etdi.

G'oyaning inson hayotidagi o'zni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va ehtiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. Yuksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. G'oyasi yetuk, ehtiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalarini ko'rsata oladi.

3-ilova

1-o'quv to'shriq
«Piramida» organayzerini to'ldiring

Savol. Globallashuv va uning yoshlar ma'naviyatiga salbiy ta'siriga qarshi kurashda ta'lim tizimi oldidagi vazifalar?



4-ilova

Mavzuning 2-masalasi Buzg'unchi g'oyalarning jahon tinchligi,
barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri

Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik, huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilish-larni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emasligi aniq.


«Men, - deb yozadi Prezidentimiz, - Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir»degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir».

5-ilova


1-o'quv to'shriq

«O'rgimchak» texnologiyasi orqali quyidagi masalalarni yoriting



dunyoqarash manfaat ifodasi ? ?

2 – guruxga.



Harbiy inqiroz huquqiy terror

6-ilova

2-o'quv to'shiriq

FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini baxs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq xolda baxslashishga xamda shu bilan birga baxslashish madaniyatini o'ratadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring

Jadvalni to'ldiring

1-guruh

Savol	Globalashuv va uning yoshlar
-------	---

	ma'naviyatiga salbiy ta'siri?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	2. Buzg'unchi g'oyalarning jahon tinchligi, barqarorlik va taraqqiyotiga salbiy ta'siri?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

7-ilova

Umumlashtiruvchi savollar

1. Globalshuv nima?
2. "Ommaviy madaniyat" nima?
3. Ma'naviy mahdidlarning asosiy ko'rinishlari?
4. Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurash vositalari?

XULOSA

Ma'naviy yuksalishga erishish – bu bir yillik yoki besh-o'n yillik ish emas, balki xalq, millat o'z milliy ma'naviyatini yillar, asrlar davomida yuksaltirib, boyitib borishiga e'tibor qaratadi. Chunki ma'naviyat qotib qolgan aqidalar yig'indisi emas, aksincha, doimiy harakatdagi uzluksiz jarayon bo'lib, taraqqiyot davom etar ekan, uning shiddatli yurishi tufayli ma'naviy hayot oldiga qo'yiladigan yangi-yangi talablar ham muttasil paydo bo'laveradi.

“Zamon sur'atlari shiddat bilan tezlashib” muammolar ortib, ko'payib borar ekan, “tabiiyki, ma'naviy hayotimizda ham ana shu sinovlarda toblanib, yuksalib, jamiyatimiz, millatimizning yorug' va sog'lom kelajagini har qanday o'zgarishlardan bezavol saqlash va asrab qolishga” qaratilgan harakatlar bo'laveradi. Muallif ana shu mulohazalardan kelib chiqib, “biz kimmiz?” degan savolga javob bermasdan turib, eng muhimi, ma'naviy boylikni, ma'naviyatni

yuksaltirishga doimiy intilmasdan turib, oldimizga qo'ygan ezgu maqsadlarga erishish mumkin emasligini ta'

Xalq hayoti "bamisoli ulug' va sharafli yo'ldan ilgarilab borayotgan ulkan karvon"ga qiyoslanadi. "Karvon bexatar bo'lmas, degan gap bejiz aytilmagan. Ammo xalq karvonini hech qanday kuch ortga qaytarolmaydi. Nega deganda, xalqning qalbida ne-ne avlodlardan meros yengilmas kuch, ma'naviyat bor".

Biz quyidagi ko'nikmalarni shakllantirib borishga erishishimiz zarur:

Birinchidan, yoshlarda yuksak g'oyaviy salohiyat shakllantirishga erishiladi.

Ikkinchidan, yoshlarda vazminlik, sabrlilik singari qadriyatlarimiz shakllantiriladi.

Uchinchidan, yoshlarimiz tinchlikni asrash, uning qadriga yetish, amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim negizi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ekanini qalban his etishadi.

Tadqiqot yuzasidan quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, mustaqillik davrida oila ma'naviy muhitini yaxshilash, azaliy qadriyatimiz bo'lgan mahallaning ijtimoiy maqomini ko'tarish, ta'lim-tarbiya sohasida o'tkazilayotgan tub islohotlar haqida eslab o'tish bilan bir qatorda bu sohalarning bugungi dolzarb muamolari haqida batafsil mulohazalardan keng foydalanish. "Shuni unutmaslik kerakki, -deb yozadi Prezident, - kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi." Shunday ekan, "bu sohada yuzaki, rasmiy yondoshuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi."

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi, davlat va jamiyat nazoratidagi umummilliy masala ekanini unutmaslik. Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajratib bo'lmaydigan uyg'unlikda olib borilishi lozim. Ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi va vazifasi komil inson tarbiyasidir. Ammo yaqin o'tmishda bizda bolaga tabiiy va aniq fanlar bo'yicha bilim berish asosiy maqsadga aylanib, bolaning ma'naviy tarbiyasi o'z holiga tashlab qo'yilgan, ko'pincha faqat siyosiy-tashkiliy tadbirbozlikka aylanib ketgan edi. Davlatimiz va hukumatimizning "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Maktab ta'limini

rivojlantirish umummilliy dasturi” va boshqa ta’lim jarayoni mazmunini tubdan takomillashtirishga xizmat qiluvchi islohotlari tufayli bu sohaga yangicha e’tibor qaratildi. Ammo hanuz bu sohada hal qilinishi lozim bo’lgan muammolar birtalay ekanligi kitobda batafsil bayon etilgan.

Uchinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonida milliy-ma’naviy qadriyatlar, milliy o’zlikni anglash masalasiga keng e’tibor berish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T. «O’zbekiston», 2008.
2. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: «O’zbekiston», 1997.
3. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7.- T.: «O’zbekiston», 1999.
4. Karimov I.A. O’zbekiston respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida so’zlagan nutqi. Xalq so’zi. 1998 yil 5 may.
5. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. -T.: «O’zbekiston», 2000.
6. Karimov I.A. O’zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: «O’zbekiston», 2000.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O’zbekiston», 2000.
8. Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas. T.9. - T.: «O’zbekiston», 2001.
9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo’l - demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan, hamkorlik yo’li. - T.: «O’zbekiston», 2003.
10. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o’z kuch - qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog’liq. -T.: «O’zbekiston», 2004.
11. Karimov I.A. El-yurtga halol, vijdonan xizmat qilish har bir rahbarning muqaddas burchi. Andijon viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so’zlagan nutq. «Ishonch», 2004 yil 26 may.

- 12.Karimov I.A. Qonun va adolat ustuvorligi faoliyatimiz mezonini bo'lsin. Surxondaryo viloyat xalq deputatlari Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlangan nutq. «Xalq so'zi», 2004 yil 2 iyun.
- 13.Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. -T.: «O'zbekiston», 2003.
- 14.Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.: 12. -T.: «O'zbekiston», 2004.
- 15.Karimov I.A. «Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog'liq». Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning o'n to'rtinchi sessiyasidagi nutq. T., «O'zbekiston», 2004 yil, 29 aprel.
- 16.Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. -T.: «O'zbekiston», 2005.
- 17.Abdullaev Yu. Maqsad asli nima edi?// O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 1998 yil 27 mart.
- 18.Abdullaev Ye.V. Islam i «Islamskiy faktor» v sovremennoe Uzbekistane. T.Sentral'naya Aziya. №6, str. 87-100.
- 19.Abdullajonov O. «Diniy aqidaparastlikning kelib chiqishi, mohiyati va O'zbekistonga kirib kelishi». T., 2000.
- 20.Abdulloh H.I. Din niqobidagi jinoyatchilar// O'zbekiston ovozi, 1998 yil 5 mart.
- 21.Abduzimxo'ja SHERZOD o'g'li. «Paykon o'zing, qalqon o'zing...»// «Xalq so'zi» 2004 yil, 2 may.
- 22.Azimov A. Diniy ekstremizm va fundamentalizm. (10 soatlik maxsus kurs dasturi). Toshkent, 1998 yil.
- 23.Islam. Spravochnik. Tashkent. 1989.
- 24.Ismatulloh Abdulloh. Din niqobidagi jinoyatchilar// «O'zbekiston ovozi», 1998 yil 5 mart.
- 25.Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. -T.: Ma'naviyat, 2000.
- 26.Jo'raev N. Mafkuraviy immunitet. -T.: «Ma'naviyat», 2000. - 16 b.
- 27.Lafasov M. Ekstremizm, terrorizm tarixi va mohiyati. – T.: Iqtisod-Moliya, 2008.

28. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar, -T.: «Yangi asr avlodi», 2001.
29. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (qisqacha izohli tajribaviy lug'at)» T., «Yangi asr avlodi», 2002.
30. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – Toshkent, Ma'naviyat, 2008.
31. Munavvarov Z. Dunyoviy davlat va din//Xalq so'zi, 1998 yil 3 mart.
32. Nuriddinov M. Taraqqiyot va taassub//Xalq so'zi, 1998 yil 4 fevral.
33. Rahimqulov A. Iymoningni yo'qotma/ Mulkdor, 1998 yil 20 fevral.
34. Saifnazarov I., Karimov T.: Muxtorov A. Xalqimizning hamjihatligi terrorizmga qarshi kafolatdir. -T.: «Yangi asr avlodi», 2004. - 56 b.
35. Safoev J. Vahhobiylik va uning maqsadi (prof. N.Komilov bilan suhbat)// O'zbekiston ovozi, 1996 yil 21 aprel.
36. Ochildiev A. Milliy g'oya va millatlararo munosabatlar. - T.: «O'zbekiston», 2004. - 136 b.
37. Terrorizm – taraqqiyot kushandasi. Toshkent, 2002.
38. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005.
39. Husniddinov Z. «Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar». T., «Movarounnahr», 2000.
40. Ergashev I. «O'zbekistondagi demokratik jarayonlar: uydirma va haqiqat»// «Xalq so'zi», 2004 yil, 18 may.

